

## TOSHKENTNING CHERNIYAEV TOMONIDAN BOSIB OLINISHI TARIXI

**Abduyusupova Firoza Ro`zmat qizi**  
O'zbekiston Milliy Universiteti magistranti

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada O`rta osiyoning bo`sib olinishi, xususan Qo`qon xonligi tarkibidagi Toshkentning 1864-1865 yillarda bo`sib olinishi va Alimqulixonning Toshkentni himoya qilgani haqida bayon qilinadi.

**Kalit so`zlar:** Toshkent, Cherniyayev, Niyozbek, qirg`iz, Alimquli, Sho`rtepa, Chirchiq.

O`rta Osiyoning Rossiyaga qo'shilishi arafasida Toshkent O`rta Osiyondagi eng muhim savdo va hunarmandchilik markazlaridan biri edi.

"Qo'qon xonligi to'g'risida"gi noma'lum muallifning yozishicha, 19-asrning 40-yillarida. Toshkentda 18 tagacha karvonsaroy va 20 mingtagacha uy bo'lgan. V.V.Velyaminov-Zernovning yozishicha, 50-yillarda shahardagi 270 ta mahallada 11 ming uy va 50 ming aholi istiqomat qilgan." Boshqa ma'lumotlarga ko'ra, Toshkent aholisi 100 ming va hatto 150 ming kishini tashkil etgan va ularning soni 1849 yil oxirida Toshkentda asir sifatida bo'lgan Sibir kazaklari Milyushin va Batarishkinlarning ma'lumotlariga ko'ra, shaharda 80 minggacha aholi bo'lgan.(1) Shunday qilib XIX asrning o'tasida Toshkent eng yirik shaharlardan biri bo`lgan.Toshkentliklarning asosiy mashg`uloti hunarmandchilik bo`lib ,xattokimahallarning nomi aholi ishlab chiqaradigan maxsulot nomi bilan atalgan.

Bu vaqtda Rossiya Iqtisodiy jixatdan zaifroq bo`lib qolgan edi. Rossiyada ishlab chiqarilgan maxsulotlar Yevropa standartiga javob bera olmagani uchun Yevropa bozorida tovarlari ko`p sotilmas edi.Shuning uchun Rossiyaga sharqda "yangi bozor" kerak edi . Bundan tashqari 60-yillarning boshidan Markaziy Osiyo Rossiya paxta sanoati uchun eng muhim xom ashyo manbaiga aylandi. Jahon bozorida paxta inqirozi 1861-1865 yillardagi AQSH fuqarolar urushi munosabati bilan vujudga kelgan Rossiya paxta sanoatiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Yevropa chegarasi orqali Rossiyaga paxta importi 1861 yildagi 2491 ming puddan 1863 yilda 587 ming pudgacha kamaydi. Bu ma'lum darajada sharqiy mamlakatlardan importning o'sishi bilan qoplandi - 1861 yildagi 152 ming puddan 704 ming pudgacha. 1864-yilda. O`rta Osiyo paxtasining narxi doimiy ravishda o'sib bordi. Nijniy Novgorod yarmarkasi va Moskva bozorlarida bir pud paxta narxi 4 dan 5 rublgacha. 1861 yilda 22-23 rublgacha ko'tarildi. 1862 yilda. Natijada paxta yetishtirish keskin qisqardi. Shu munosabat bilan Rossiya dvoryanlari va burjuaziyasining O`rta Osiyoni egallahsga intilishi kuchaydi(2)

General Chernyaev Chimkent shahrinini egallagagandan so`ng o`z e`tiborini. Toshkent shahrini egallahsga qaratadi. Holbuki podsho Aleksandr II bu shaharni olishni man qiluvchi qat'iy buyruq bergan edi. Chunki Aleksandr II hali Toshkentni bosib o`lishga tayyor emasligini yetarlicha qurol aslaha yo`qligini hisobga olgan. Bu vaqtida Toshkent shahri 25 chaqirim uzunlikdagi qalin mudofaa devorlari bilan o`ralib, devorining balandligi 5-7 metr, ostining eni esa 2-3 metrga yetgan. Tepasining kengligi 2 metrdan kam bo`lmay, ichki tarafdan ochiq, sirtidan oralatib paxsadan ishlangan mudofaa minorachalari qurilgan. Sarbozlar mazkur minorachalar orqasidan dushmanga o`q uzardilar. (3) Chernyaev 1864-yil 27-sentabrda yo`lga chiqadi.

General Chernyaev bu shaharni egallah uchun tayorgarlik ishlariniko‘rib oziq-ovqat, qurolasлаha va boshqa narsalarni Toshkentga olib borishni vazifasin Alimquli tomonidan o‘ldirilgan Boyqozoqboyning o‘g‘li Oqmullaga topshirdi(4). Qo‘qon qo‘sishnari artilleriyasi ham ancha yaxshi uyushtirilgan bo‘lib, uning to‘plarini uzoqqa otilishi va nishonga tegishi maqtovga sazovor bo‘lgan. Shuning uchun 4 oktyabr kundagi jangda Chernyaev askarlari mag`lubiyatga uchrab askarlarini ortga o`lib ketadi. Chernyaev 78 askar, va 4 ta afiserini yoqotgan holda ortga Chimkentga qaytadi. Bu davrda Shahar mudofaasi uchun Toshkent garnizonida 30 ming himoyachi, 48 mis va 15 ta cho'yan to'p bor edi. Toshkent shahar aholisi ona yurtni himoya qilish uchun bir tanu bir jon bo'lib battol dushman bilan tengsiz jangda olishadi. Tarixchi Muhammad Solihning «Tarixi jadidi Toshkand» asarida yozishicha Toshkent shahar aholisi battol dushman qarshi qahramonlik mo'jizalarini ko'rsatgan. Tez orada 10 minglik qoshin bilan mingboshi Alimqul (1858-1865) Toshkentga yetib keladi. Xonning korsarma o`lib Chernyaev bilan muzokaralar o`tqazish uchun Muhammad said nomli savdogarni Chernyaev o`ldiga jonatadi.

Keyingi jang 1864 yil noyabr oyi oxirida yuz berib, havo juda sovuq va qor yeg‘ib turgan payta bo`lgan. Askarlar Turkistonga yaqin joyga urnashgan va Rossiya tobeligiga utgan «Iqon» degan qishlog‘ida rus otryadini mag`lubiyatga uchratadilar. Bu jangda Alimqulining askarlarining soni 12 ming kishi edi. Bu yerdagi xalqning ruslarga buysunganligi uchun Alimquli buyrugiga binoan mol-mulki bilan Toshkent tomonga haydar olib ketildi. Alimqul garchand g‘alaba qozongan bo`lsa ham, Turkistonga qarab yurmay, «Iqon»dan Toshkentga qaytishga majburbuladi. Bunga xonlikdagi ichki ziddiyat va qo‘sishmcha harbiy kuchlarni to‘plash sabab bulgan Alimqul xonlikdagi vaziyatni yaxshilaguncha so`ng Alimqul Qo‘qon shaxrida kuch toplaydi va bir necha qoshni hududlar bilan munosabatni yaxshilashga intiladi. Hattoki turk sultoniga Rossiyaga qarshi bo`layotgan urushda yordam sorab murojaat qiladi. Yaqin qo`shnosи Buxoro amiriga ham maktub yozadi, lekin Buxoro amiri bunday vaziyatda o`zi Toshkentni eggallab olishni maqul deb biladi. General Chernyaev

Toshkentga qayta hujum qilish tadbirlarini tamomlab, 1865 yil 28 aprelda Chirchiq yonidagi «Niyozbek» qal’asini bir kunli bombardimon qilish orqali eggalaydi.

29 aprelda ertalab general Kachalov boshchiligidagi soldatlar qal’ani to‘plardan o‘qqa tutdi. Ammo vatan himoyachilar bo‘sh kelmadi. o‘sha kuni soat 3 da Toshkent tomonidan 3 ming kishilik vatan himoyachilar 2 zambarak bilan kelib general Chernyayev askarlari bilan to‘qnashdi. Dushman esa, ulaming hujumini qaytarishga muvaffaq boldi. Shundan keyin Niyozbek qal’asiga hujum davom etirildi va bosib o‘linib Abdurahmonbekning maslahati bo‘yicha, shaharni suv bilan ta’minlaydigan «Kay kovus» arig‘i tog‘onini buzib uni Chirchiq daryosiga burib yuboradi. Natijada 370 sarboz asir olindi, 6 to‘p va 315 qurol oija sifatida dushman qo‘liga o‘tdiadi.(5)

Rus askarlaridan esa 7 ta rus kishi halok bo`lib 3 kishi yarador bo`ladi. Bu bilan shaharda suvsizlik va ocharchilik boshlanadi. Rus askarlari shahardan tashqariga chiqqan hammani taqib etadi. Xattoki podani boqishgayam im kon qoldirmaydi. Toshkentliklar 40 kun suvsiz qolib, aholi aholini tushkunligiga sabab bo`ladit. Lekin tez orada Alimqul mingboshi 60 minglik askar bilan Shahar mudofaa linyasini egallab, shiddatli hujum ko`rsatadilar. Shunga qaramay dastlabki hujumda Qo`qonliklar 300 kishini yo`qotadi. Rus askarlaridan esa 10 kishi yaralanadi.

Siddiq To‘ra boshliq Qo‘qon qo‘sining razvedka bo‘limi dushmanning otliq va piyoda otryadi bir to‘p bilan Sho‘ratepadan chiqib, «Oltin tepa» orqali Salor suvi bo‘ylab kelayetganligi haqida Alimqulga xabar keltirgan. Shundankeyin Alimqul o‘z qoshinlarini ma’lum qismi bilan ko‘rsatilgan tomonga jo‘nadi. Dushman qushinlari Salor suvidan o‘tib Qo‘qon qo‘singanligiga qarata to‘plardan o‘q uzdilar, natijada ikki tomon o‘rtasida qattiq jang boshlanib qo‘qonliklar hujumga o‘tdilar. Bunda Alimqulning shaxsan o‘zi qatnashib jangga rahbarlik qilgan. Rus otryadi hujumga bardosh bera olmay, Sho‘rtepaga tarafga qochgan. Alimquli guruhi bilan Chernyayev Sho‘rtepada bo‘lib har ikki tomon urush liniyasini egallab dastavval to‘plardan otishuv boshlagan. Sungra Qo‘qon qo‘singanligiga qarata to‘plardan o‘q uzdilar, natijada ikki tomon o‘rtasida qattiq jang boshlanib qo‘qonliklar hujumga o‘tdilar. Bunda Alimqulning shaxsan o‘zi qatnashib jangga rahbarlik qilgan. Alimqul va sardor Abdullabek dushman qo‘singanligi bilan o‘zlari olishgan. Ammo 9 may kuni dushman o‘qi Alimqulni chap biqini- dan kirib qorniniteshib, kindigi ustidan chiqib ketadi. . Sungra Alimqul Toshkent fuqarolarini asta-sekin orqaga qaytib, o‘zlarini shahar Ichida uylarini himoya qilishni buyurgan Lashkarboshining yarador bo‘lishi askarlarning,xalq olamonining ruhini tushirib, pirovardida ularning chekinishiga sabab bo‘lgan omillardan biri bo‘ldi.. Mulia Alimqul lashkarbosm shahid bo‘lgandan keyin sardorsiz qoladi. Buxoro, Xorazm va Farg‘onaliklardan mahaliy aholining nufuzli kishilari yordam sorab maktublar yozishadi. Lekin ular yordam bermaydilar. .

Qo‘qonga elchi yuboriladi. Shunda ular Toshkentga qaytish o‘rniga aksincha Sulton Saidxonni Qo‘qonga olib ketish va taxtini begonalarga utib ketishiga yo‘l

qo‘ymaslik zarurligini bayon etadilar. Buxoro amiri ham Toshkentga yerdam berish dan bosh tortib, avvalo Sulton Saidxonni Buxoroga kelishi zarurligi haqida javob xatni yubordi. Bu bilan amir Sulton Saidxon Buxoroga bo‘ysungan taqtdirdagina yordam berilishini ma’lum qilgan edi. Buxoroga kelgan javob xatini amaldor va harbiy boshliqlar muhokamasiga qo‘yganda ayrim Buxoroliklar amir taklifini qabul qilish kerakligini aytdilar va Toshkentga yordam berishga urinadilar ham. Buxoro amirining aralashuviga yo‘l qo‘ymaslik boshida Toshkentda boshlangan kurashga Chernyayev iyun shtab-kapitan Abraning kichik otryadini yubordi tili “Buxoro yo‘li”da joylashgan va Chinoz qal’asini egallagan, shu tariqa Toshkentni uchala tarafdan o‘rab olingan edi. Yordam kuchi kelmasdan turib shaharni aggalashi kerakligini tushungan 1865 yil 14 iyunida rus askarlari erta saharda shahar qal’asinito‘plardan uqqa tutdi. 1950 kishi 12 qurol bilan shahar devorlariga yaqinlashib, uning chekkasida otishma boshladi, 15 ming kishilik Qo‘qon garnizoni bilan to‘qnash keldi. Biroq artilleriyaning yomon joylashishi va Toshkent garnizonining ko‘p sonli mudofaa tuzilmalari orasiga tarqalib ketganligi istehkomlarni yorib o‘tishni osonlashtirdi.

Bundan tashqari, shahar aholisi o‘rtasida birlik yo‘q edi va aholining bir qismi rus qo‘sishinlariga yordam berishga tayyor edi. 1865 yil 14 iyundayn 15 iyunga o‘tar kechasi chor qo‘sishinlari Toshkentga hujum boshladi. Ikki kun davom etgan ko‘cha janglaridan so‘ng shahar himoyachilarining qarshiligi butunlay sindirildi.(6) Natijada ular Kamalak darvozasi orqali shahar ichiga yorib kirib, mudofaachilar-ning otryadlari bilan tuqnashdilar. Bunday toqnashuvda Shayxontohur, Beshyog’och r, Qashqarmahallalarida va boshqa joylarda bo`lgan edi. Hatto, ayrim joylarda dushmanqa qarshi barrikadalar ham qurildi. Bir yarim soatlik og‘ir jangdan sung rus askarlari chekinib, ShayxShibli arig‘i orqali qal’a devorining shimol tomoniga o‘rnashib oladilar.Ular cheki nayottanida Urdadagi do`konlarga o‘t qo`yib qochganla. Ayrim rus otryadlari machitlar ichiga kirib urushganlar. ShayxShib-li arigi orqali chekingan rus otryadi yana O‘rdaga bostirib kirishga harakat qildi.

Bularga qarshi Qiyot mahallasining aholisi Abdurahim yasovulboshi boshchiligida devorlarnin gorqasiga va pastqam joylarga urnashib mudofaa liniyasini egalladilar. Toshkentliklar ahvol og‘irligiga qaramay, shaharni qo‘ldan bermaslikka qattiq harakat qildilar. Biroq rus otryadiayrim xoin kishilar or-qali shahardagi o‘qdori omborini topib uni portlatishga muvaffaq bo‘ldilar. Bu sha-har mudofaa taqdirini hal qilgan omillardan biri hisoblangan. Suvsizlik,yo‘qchilik va o‘q-dorilar yetishmasligi pirovardida shaharxalqining tinkasini quritadi. Natijada 1865 yil 17 iyunda toshkentliklar. Dushman hujumiga bardosh bera olmay, , taslimbo‘lishga majbur bo‘ldilar. General Chernyayev Shayhontohur, Beshegoch va boshqa aholi gavjum yashaydiganjoylarga to‘plarni urnatib darhol tinchlik sulhi tuzilmasa,shaharni yendirib va buzib tashlash haqida e’lon tarqatdi.Shundan so‘ng 17-iyun kuni kechga yaqin

mahalliy hokimiyat vakillari Toshkent oqsoqollarini qabul qilish iltimosi bilan Chernyaevga yetib kelishdi. 17-iyun kuni oqsoqollar va “faxriy aholi” (shahar zodagonlari) butun aholi nomidan imperiya tarkibiga qoshilishga tayyor eanligini bildiradi. Shu bilan toshkenr Ruslar qoliga otadi. Chernaevning otryadi 25 kishini yo'qotadi. 89 kishi yaralanadi va 28 kishi o'qdan zarba olgan. Qo'qon qo'shnlari va mahalliy aholi orasida qurbanlar soni aniqlanmagan. Nihoyat, 1865-yil 17-iyunda kopchilik qon tokishlarning oldini olish maqsadida Toshken Chernyayevning bir necha nufuzli kishilar bilan muzokaralar otkazib “Toshkent aholisini “o'z ixtiyori bilan” shaharni taslim bo`lganini yozib berishiniga kondiradi. Qarshilik ko'rsatishning foydasizligini hisobga olgach shahar himoyachilari shaharni topshirish uchun muzokaralarni boshlaydi. XIX asrning ikkinchi yarmida Toshkentliklarni Kambaga`lik xonlar va beklarning doimiy o`zgarib turishlariyu ular o`rtasidagi taxt kurashlarining uzoq davom etishi natijasida mahaliy aholi ancha aziyat chekkan edi. Ular doimiy aholini molini va jonini himoya qiladigan mustahkam himoya qidirardilar. Shuning uchun Toshkentliklarning bir qismi Buxoro xoni tarkibiga qoshilishini xoxlashardi. Chunki ular Buxoro xonligini o`rta Osiyodagi eng kuchli xonlik deb hisoblashardilar. Xattoki Chernaev birinchi hujumdan song chekinganida ham mahaliy ruhoniylar guruhi Buxoro amiridan ularni o`z tarkibiga qoshishini iltimos qilgan Buni eshtgan Alimqulixon boshliqlarni jazolab Toshkentga kelayotgan 2000 ta Buxoro askarlarini Chordor yaqinida ortga chekinishga majbur qilgan(7).

Ba`zilari esa asosan savdogarlar guruhi masalan Muhammad Soatboydek obroli odamlar Chernaevni qollab quvatlashgan. Manbalarda ta`kidlanishicha ichki dushmanlar yan`i savdogarlarning bir guruhi Chernyayev qollab quvatlab unga ishonch berib Toshkent darvozalarini ochib berishni va`da qiladilar. Bu esa savdogarlarga Moskva va Novgorod shaharlarida erkin bojsiz savdo qilish imkonini beradi. Tog`ri barcha savdogarlar o`z kelajagini ruslarning tarkibiga qoshilishda ko`rmasdi lekin Toshkentliklar bundan buyon Qo`qon tarkibida qolishi yoki Buxoroga qoshilishi ular uchun hech qanday yaxshilik olib kelmasligini, ularning hayotiy manfaatlari ko`proq markazlashgan boshqaruvni himoya qilishni talab qilishini anglab, shaharning kelajakdagi taqdirini oylashardi. Bundan tashqari manbalarda ta`idlanishicha 1865 yilda To`raxon Zaybuxanov 1865 yilda Peterburga borib u yerda imperator huzuriga kirib Toshkentni bosib o`lish taklifini beradi. Toshkentlik 50 ta nufuzli kishi ularni qollab-quvatlashini va hattoki 2000 ming kishini yordamga berishini aytadi. (8)

Shunday qilib birdamlikning , ishonchning yo`qligi ham Toshkentliklarning taslim bo`lishiga o`lib keldi. Bundan tashqari Aholining bir qismi tinchlik istab Qoqon askarlarini madad kutishar edilar edilar. 1865-yil sentabrda Orenburg general-gubernatori Krijanovskiy Toshkentga kelib shaharni Rossiya imperiyasi tasarrufiga

o‘tganligini e’lon qildi. 1866-yil avgustda Rossiya imperiyasining Toshkentni Rossiya tobeligiga olinganligi haqida rasmiy farmoni e’lon qilindi. Toshkent 1867-yilda tashkil etilgan Turkiston general-gubernatorligining siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazi bo‘lib qoldi. Anhorning chap sohilida mustamlakachi ma’murlar va harbiylar uchun Yangi shahar qurila boshladi. 1865-yil avgust-oktabr oylarida ruslar Toshkentning Qo‘ymas darvozasi ro‘parasidagi tepalikda Toshkent Tuproqqa‘rg‘oni harbiy qal’asini barpo etishdi. Yangi shahar hududida ma’muriy idora va mahkamalar joylashdi. Anhorning o‘ng sohilidagi qadimgi Toshkent Eski shahar deb atala boshladi. Toshkentning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi Rossiya\_angliya munosabatlarini buzulishiga olib kelardi. Shuning uchun Shaharlikar shahar darvozalarini “o‘z ihtiyyori bilan ochib bergani”ni bildiruvchi maqolalar chop etirildi. Toshkentni keying taqdirini hal qilish masalasidagi xabarlar 1865 yildayoq “Биржевые ведомости” gazetasida chop etiladi. Xususan gazetada Xitoy va Markaziy Osiyo savdo-sotig` uchun markaziy nutqa bo‘lib xizmat qilishini yozilgan. Chernyaev Toshkentni bosib olgan bolsa ham uni adolatli boshqrgan. 1866 yil boshida Toshkentga tashrif buyurgan Moskva gazetasining o‘z muxbiri ham Chernyaev Toshkentni bosib olish davrida metropoliya va mahalliy aholi manfaatlari o‘rtasida muvozanatni topishga muvaffaq bo‘lganini yozadi. "Muhammadlarning ishlari" yoki faqat "ijtimoiy tartibni buzish" holatlariga aralashish, "Aholiga o‘z sudida hukm qilish uchun erkin tanlash huquqi berilgan", deb ta’kidlaydi muxbir. Uning fikricha, bu muvozanat va konfessional aralashmaslikning muvaffaqiyatlari siyosati D.Romanovskiy tomonidan buzilgan va Chernyaevning sobiq Muhammadiylarning diniy ishlariga aralashmaslik siyosatini olib brogan.

Aytish mumkinki, aynan Chernyaev “Islom diniga va musulmon muassasalari faoliyatiga halaqt bermaslik” siyosatini boshlab bergen va bu siyosat keyinchalik mintaqaning birinchi general-gubernatori K. fon Kaufmanga tegishli bo‘ladi. Albatta, biz umuman bilmaslik yoki nazoratsizlik haqida gapirmadik. "E'tiborsizlik" faqat harbiy va fuqarolik ma’nosida imperiyaga tahdidlar haqida gapirmaguncha sodir bo‘ldi.(9) Boshqaruv. Chernyaev nazorat va hukmronlikning parallel mexanizmlarini yaratishni unutmadi, masalan, harbiy gubernatorga "saylangan" shaxslarning asosiy "diniy lavozimlariga" tayinlanishini tasdiqlash (yoki tasdiqlamaslik) huquqini qoldirdi.

Xulosa qilib qilib aytganda Toshkent bosib olingandan so`ng Romanovlar uchun muhim siyosiy hududga aylangan. Barcha Rossiya va Markaziy Osiyo munosabatlari 1867 yildan boshlab Toshkentdan turib hal qilinadigan bo‘ldi. Ruslar O‘rta Osiyoni bosib olishda judda ixtiyotkorlik bilan harakat qilishni hoxlashardi. Xususan mahaliy aholinin ruslarni qollab quvatlshi muhim ahamiyat kasb etgan. Shuning uchun mahaliy aholini urf odatlariga dastlabki yillarda ta`sir otqazishga intilmaganlar. Bundan tashqari Toshkent bosib olinganda mahaliy aholi N.A. Krijinovskiy nomiga shariat masalasida

## International Conference on Education and Innovation

mahaliy din ulamolariga qoyib berishni iltimos qilib maktub yollashadgani ham buning asosiy sabablaridan biri edi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Азадаев Ф. Ташкент во второй половине XIX века. Ташкент, 1959. С. 42.
2. Халфин Н.А. Присоединение Средний Азии к России. Москва: Наука, 1965. С. 144.
3. Зиёев X. Туркистанда Россия тажовузи ва хукмронлигига қарши кураш (18-20 аср бошлари). Тошкент: Шарқ, 1998. 133 б.
4. Skrine F.H. The heart of Asia A history of Russian Turkestan and the Central Asian khanates from the earliest times. London: Methuen, 1899 Р. 162.
5. Туркестанский край. Сборник материалов для истории его завоевания. 1864 г. Собрал полковник А.Г. Серебренников. Ташкент: Типография штаба Туркестанского военного округа, 1914. Ч. 1. С. 266
6. Зиёев X. Туркистанда Россия тажовузи ва хукмронлигига қарши кураш (18-20 аср бошлари). Тошкент: Шарқ, 1998. 132 б.
7. 4. Туркестанский край. Сборник материалов для истории его завоевания. 1864 г. Собрал полковник А.Г. Серебренников. Ташкент: Типография штаба Туркестанского военного округа, 1914. Ч. 1. С. 22.
8. Азадаев Ф. Ташкент во второй половине XIX века. Ташкент, 1959. С. 73.
9. Бабаджанов Б. Туркестанский конкистадор: взлеты и падения генерала Черняева // Восток свыше. 2012. Вып. 28. С. 48.